

Q'ZBEKISTON ZAMINI




Земля Узбекистана

Land of Uzbekistan

ISSN 2181-9955

Ilmiy-amaliy va innovatsion jurnal



QZ

1/2023

U.Norqulov
S. Sattarov
A.S. Shamsiyev
A.S. Urolov
E.Yu. Safarov
D.A. Qodirova
M.E. Saidova
K.M. Boymirzayev
L.Q. Qarshiboyeva
O.O'. Davronov
B.N. Inamov
R.N. Sharopov
T.M. Abdullayev
J.Z. Usmonov
Sh.Sh. Azizov
A.Rabbimov

Jurnal 2019 yil aprel
oyidan chiqqan boshlagan
Bir yilda to'rt marta
chop etiladi

Obuna indeksi: 1356

Manzilimiz:

**100124, Toshkent Sh.,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Feruza massivi 158B-uy**

Tel:

+99894 647 - 87 - 35

+99888 788 - 77 - 84

E-mail:

uzbekiston_zamini

@umail.uz

www.uzzamin.uz

www.uzdavyerloyiha.uz

*Chop etilgan
maqola mazmuni
va unda keltirilgan
ma'lumotlarning
to'g'riligiga muallif
javob beradi*

O'zbekiston zamini ilmiy-amaliy innovatsion jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2019 yil 10 yanvarda 1006-raqam bilan ro'yxatga olingan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori bilan quyidagi fanlar bo'yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etiladigan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

- 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
- 03.00.00-Biologiya fanlari
- 05.00.00-Texnika fanlari
- 11.00.00-Geografiya fanlari
- 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
- 18.00.00-Arxitektura fanlari

Mahkamova D., Sodiqova M., Jabborov O. Farg'ona viloyati Furqat tumani tuproqlarining xossalari va ularning sifat ko'rsatkichlari	62
Quvvatov D.A., Urinov J.Ch., Normanov Z.Q. Suv o'simliklarining kollektor-zovur suvlari mineralizatsiyasi va ozuqa moddalariga ta'siri	68
Islomov O'.P., Musurmankulov Z.Sh. O'zbekiston respublikasida kosmik sohaning rivojlanish bosqichlari	73
Mukumov A.M., Shukurbekov I.B. Yerdan foydalanishning ekologik barqarorligini ta'minlash	78
Hojiyev Q.M. Yer islohoti jarayonlarida yer hisobini yuritishning ahamiyati	82
Soatov O.I. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni yer fondining boshqa toifalariga o'tkazilishi: muammolar va yechimlar	88
Sharopov R.N., Temirova Sh.B., Haqberdiyev A.S. Lalmi yerlar monitoringini yuritishda yirik 1:10 000 masshtabli raqamli xaritalarning ahamiyati	92
Majitov B.X. Subtropik bog'zorlarni joylashtirish va rivojlantirishda yer maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirish	97
Журакулова Д.Х. Географические аспекты историко-генетического исследования формирования антропогенных ландшафтов	100
Otamirzayeva M.H. Daryo havzalari landshaftlari va ularning antropogen transformatsiyasi	105
Mashrapov N.R. Yer axborot ma'lumotlarini mahalla fuqarolar yig'ini (MFY) bo'yicha shakllantirish usuli	111
Xaitova K. Yaylov yerlaridan foydalanishdagi muammolar o'rganilganligining bibliografik tahlili	114
Ходжамуратова Р.Т., Шодиев С.Р., Атаназаров К.М. 75-летний юбилей профессора Чембарисова Эльмира Исмаиловича	118

YERDAN FOYDALANISHNING EKOLOGIK BARQARORLIGINI TA’MINLASH

A.M. Mukumov
Katta o‘qituvchi



I.B. Shukurbekov
2-bosqich tayanch doktorant

“TIQXMMI” MTU

Annotatsiya. Yerdan foydalanishg zamonaviy sharoitlarida, o‘z ichiga kenglik-tarkibiy tavsiflarni oluvchi murakkab ekologik tizim bo‘lib, u turli xil tabiiy va antropogen omillarning kuchli salbiy ta‘sirida bo‘ladi, shu sababli butun dunyo uchun, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi uchun ham ekologik vaziyat uchun haqiqiy xavf tug‘diradi. Shu sababli antropogen ravishda o‘zgartirilgan tabiiy landshaftlar va ishlab chiqarishda sun‘iy texnologiyalar inson va tabiiy muhit uyg‘unligida ishlab chiqilishi va qo‘llanilishi kerak.

Ushbu maqolada respublikada barqaror yerdan foydalanishni tashkil etishga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar tarkibi va ularning ta‘siri masalalari nazariy nuqtai nazardan ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yerdan foydalanish, tuproq, yer resurslari, mikroiklim, ekologiya, landshaft, ekologik tizim.

Обеспечение экологической безопасности землепользования

Аннотация. В современных условиях землепользования, представляющие собой сложные экологические системы, имеющие определенные пространственно-структурные характеристики, испытывают сильнейшие негативные воздействия различных природных и антропогенных факторов, что создает реальную опасность для экологической обстановки как в мире, так и в Республике Узбекистан.

В данной статье рассмотрен состав факторов, влияющих на организацию устойчивого землепользования в республике и их влияние.

Ключевые слова: землепользование, почва, земельные ресурсы, микроклимат, экология, ландшафт, экологическая система.

Environmental safety of land use

Abstract. In modern conditions of land use, which are complex environmental systems that have certain spatial-structural characteristics, experience the strongest negative effects of various natural and anthropogenic factors, which creates a real danger to the environmental situation both in the world and in the Republic of Uzbekistan.

This article discusses the composition of factors influencing the organization of sustainable land use in the republic and their influence.

Key words: land use, soil, land resources, microclimate, ecology, landscape, ecological system.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining yer kodeksida [2] va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni 1-ilovasining 80-maqсадida “Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish” masalalari belgilab berilgan. Ushbu masalalar hududlarda ekologik barqaror yerdan foydalanishni tashkil etishni ham nazarda tutadi. Bundan tashqari, Davlat, idoraviy va ishlab chiqarish ekologik nazorati orqali tabiiy resurslardan, shu jumladan, yer resurslaridan oqilona va barqaror foydalanishning holatini tahlil qiladi va baholab boradi.

Yerdan foydalanishning ekologik barqarorligini ta‘minlash masalalari faqat yerning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda hal qilinishi talab qilinadi. Bu, ayniqsa, yer yuzasiga turli yo‘llar bilan intensiv ta‘sir qilinayotgan bugungi sharoitda juda ham muhim. Intensiv ta‘siirlarning salbiy oqibatlari tuproq degradatsiyasi jarayoni ko‘payishi ko‘rinishida, tabiiy fitotsentzlarning ulushi pasayishida, ekin yerlari haydalma qatlami tarkibining, tuproqning fizik-ximik xususiyatlarining buzilishida, yer usti va yer osti suvlarining minerallashtirish oshishida, tuproq, suv va atmosferaning kimyoviy moddalar bilan ifloslanishida, foydali mikroflorani yo‘q qilishida va boshqalarda namoyon bo‘ladi.


Ekotizimlar faoliyatiga oid qonuniyatlarga amal qilinishi, inson faoliyati, yerlardan samarasiz foydalanish, ilmiy asoslanmagan holda bir toifadan boshqasiga o‘tkazish va boshqa tabiiy hodisalar natijasida vujudga kelib bugungi kunda kuchayib borayotgan yerlar degradatsiyasi, birinchi navbatda qishloq xo‘jalik yerdan foydalanishiga aloqador. Tuproq unumdorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar hajmining pasayishi natijasida holati buzilgan yerlar maydoni har yili oshib bormoqda. Bunga misol sifatida 1-rasmdagi ma‘lumotlar tahlilini keltirish mumkin. Unga ko‘ra 2010-2019-yillarda suv va shamol eroziyasiga uchragan yerlar maydoni mos ravishda 1,47 million gektar va 1,74 million gektarga oshgan. Turli xil kimyoviy birikmalar



1-rasm. Dunyo bo‘yicha degradatsiyaga uchragan qishloq xo‘jaligi yerlari maydoni

(kimyoviy degradatsiya) bilan ifloslangan yerlar maydoni 0,75 million gektarga oshgan bo‘lsa, tuproqlarning fizik degradatsiyasi 2,22 million gektarga oshgan [19].

Huddi shunday tendensiya O‘zbekiston yer fondi tarkibida ham kuzatilmoqda. Natijada 2010-yilga nisbatan qishloq xo‘jalik yer turlarining maydoni 2017 va 2019 yillarda mos ravishda 107,3 va 114,1 ming ga, ekin yerlari maydoni esa



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi yer fondidagi o‘zgarishlar

29,4 va 45,4 ming ga kamaygan (2-rasm).

Ushbu hodisalar qishloq xo‘jaligi landshaftining ekologik salohiyatini pasaytirish va tuproq unumdorligini asta-sekin pasaytirish tendensiyasiga olib keladi. Ushbu ma‘lumotlar yer turlarining tabiiy resurs salohiyatidan tejab emas, balki ekstensiv foydalanilayotganligini ko‘rsatadi.

Bir qator mutaxassislarining [4, 5, 6, 7] fikricha ekologik vaziyatning murakkablashishiga turli sohalarda, turli darajalarda va turli darajadagi ta‘sir ko‘rsatadigan bir qator iqtisodiy va huquqiy omillar ta‘sir qiladi:

- takomillashmagan normativ huquqiy hujjatlarning mavjudligi;
- inflyatsiya, inqiroz tufayli iqtisodiy

sohada uzoq muddatli loyihalarning amalga oshirishni qiyinlashtirishi va boshqalar.

Bularning barchasi yerdan foydalanish va atrof-muhitni boshqarish bo'yicha sifat jihatidan yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo yetadi, bunda asosiy o'rin jamiyat va biosfera, tabiat va inson, ekologiya va iqtisodiyot o'rtasidagi murosali munosabatlarni uyg'unlashtirish bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, bizning nazarimizda yerdan foydalanishni ekologiyalashtirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi kerak, chunki amalga oshirilayotgan tadbirlarning iqtisodiy samarasi nafaqat amalda ekologik noto'g'ri hisob-kitoblarni minimallashtirishga, balki hududning atropogen cho'llanishiga olib keladigan tabiatdagi salbiy ko'rinishlarning oldini olishga ham bog'liq. Tabiiy biologik tizim sifatida tabiiy va yer-resurs potensialining normal ishlashi, uning barcha funksiyalarini bajarish uchun ulardan foydalanishni atrof-muhitni tartibga solishning tabiiy mexanizmini yo'q qilishga imkon bermaydigan yekologik asosga moslashtirish kerak.

Yer degradatsiyasining barcha salbiy oqibatlarini inobatga olgan holda, so'nggi yillarda nafaqat iqtisodiy, balki ekologik nuqtai nazardan ham zamonaviy talablarga javob berishi kerak bo'lgan texnologiyalarni qo'llash bo'yicha qadamlar qo'yildi. Ya'ni. umumiy iqtisodiyot va tabiatdan foydalanish nuqtai nazaridan yerdan foydalanish raqobatbardosh bo'lishi va atrof – muhitni boshqarish va atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyati nuqtai nazaridan ekologiyalashtirilishi kerak.

Yerdan ekologik barqaror foydalanish metodologiyasining asosini yerning tabiiy kompleks va yekologik-iqtisodiy munosabatlar ob'ekti sifatida ishlashi tashkil etadi. Uning markaziy bo'g'ini bo'lib - hududning ekologik tizimining xususiyatlarini shakllantirish, saqlash va shu asosda amalga oshiriladigan landshaft-ekologik mezonlari va yerdan foydalanish holatini baholash tashkil etadi.

Shu nuqtai nazardan, asosiy muammolardan birini - ekologik muvozanatni saqlashni hal qilish kerak, bu ekologik barqaror yerdan foydalanishni shakllantirishga xizmat

qiladigan alohida landshaftlar-yer turlari, kichik yerdan foydalanuvchilardan tortib turli darajadagi hududiy tuzilmalar faoliyati bilan bog'liq bo'lishi kerak [8, 9].

Barqaror ekologik yerdan foydalanish funksiyalari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini qondirishga, ishlab chiqarish va boshqa faoliyatning yuqori mahsuldorligini ta'minlashga qaratilgan landshaft xususiyatlarini, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy qiziqishlarini qondirishga yo'naltirilgan hududning sohaviy muvofiqligini, yuqori maxsuldorli faoliyatni ta'minlash, yer resurslarining foydali xususiyatlari va sifatini to'liq hisobga olishdan iborat.

Soha mutaxassislarining [10, 11, 12, 13, 14] fikrlariga ko'ra, yerdan foydalanishning ekologik muvozanatni tartibga solish quyidagi asosiy tamoyillarni hisobga olgan holda ta'minlanishi mumkin:

- landshaft-ekologik asosda yerlarni qayta taqsimlash va ulardan foydalanish;
- yer va hududlardan foydalanishni tashkil yetishda ekologik muvozanat yondashuvini qo'llash;
- muayyan huquqiy va tabiiy-iqtisodiy rejimga ega bo'lgan hududlarni belgilash;
- tabiiy va sun'iy landshaftlarning, ekologik tizimlarining ekologik muvozanatini ta'minlash;
- qishloq xo'jaligi landshaftiga antropogen ta'sirni minimallashtirish.

Turli mualliflarning [15; 16; 17; 18] ko'plab tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, ekologik barqaror yerdan foydalanish tuproq unumdorligini doimiy ravishda oshirishni ta'minlaydigan texnik, texnologik, tabiiy-biologik va ijtimoiy-iqtisodiy qonunlarga qat'iy rioya qilgan holda kuchga kiradigan yerlardan oqilona foydalanish tamoyillari asosida shakllanadi.

Shu sababli yuzaga kelgan vaziyatni yaxshilash va o'zgartirish uchun yerdan oqilona foydalanish asosida sifat mezonlarini kiritish va ularga rioya qilish zarur, bu esa o'z navbatida jarayonni ta'minlashga yordam beradi. Yerdan foydalanuvchilar tuproq qoplamini eroziya, ifloslanish va boshqa salbiy oqibatlardan himoya qilishlari, tabiiy xususiyatlaridan qat'i nazar tuproq unumdorligi darajasini oshirishlari, saqlashlari shart, holati buzilgan yerlarni qayta tiklashlari

talab qilinadi. Qishloq xo'jaligi yerlaridan noqishloq xo'jalik ehtiyojlar uchun foydalanishni cheklash, shuningdek ushbu maqsadlar uchun qishloq xo'jaligi uchun yaroqsiz yerlarni yoki sifati past yerlarni ajratish kerak.

Xulosa, taklif va tavsiyalar. Yuqorida tahlil qilingan ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Yer resurslarining mavjud holatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, agar ularni normallashtirish va yo'q qilish bo'yicha samarali choralar ko'rilmasa, ekologik asoratlarning asosiy tendensiyalari saqlanib qoladi. Shu munosabat bilan har bir mamlakat, mintaqada yerdan

foydalanishni ekologiya muammosini hal qilish zarurati sezilarli darajada oshmoqda.

2. Yerlarning tabiiy resurs salohiyatining pasayishiga ulardan intensiv foydalanish ham ta'sir qiladi, bu esa yer turlarining ekologik tizimlarining degradatsiyasiga olib keladi.

3. Yerdan foydalanishni ekologiyalashtirish ekologik barqaror tabiiy va iqtisodiy komplekslarni yaratishga, rivojlanishga qodir landshaftlar va fitotsenozlarni shakllantirishga, yer resurslaridan oqilona foydalanishning ekologik talablariga mos kelishga, shuningdek samarali ishlab chiqarishni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida".-T. Adolat, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi -T. Adolat, 1998.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 60-sonli Farmoni "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". -T. Adolat, 2021.
4. A.Muqumov. Yerdan foydalanish ekologiyasi. TIQXMMI, 2022, -126 b.
5. Abdugani Mukumov, Komil Xujakeldiyev, Fayzullo Hamidov, Sharafatdin Narbaev, Khudoyberdi Abdivaitov. Features of the organization of agroclusters in the structure of land management projects. E3S Web of Conferences 227.
6. B.Alixanov. Ekologik ta'lim — atrof-muhit musaffoligining asosiy omili.Xalq so'zi, 10-avgust 2012-yil.
7. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. T.: "O'qituvchi", 1991, 254 b.
8. Варламов А.А. Экология землепользования и охрана природных ресурсов: учебник/ А.А. Варламов, А.В. Хабаров. - М.: Колос, 1999.- 159 с.
9. Вершинин В.В. и другие. Экология землепользования. —М.: «Т8 Издательские Технологии», 2015.- 332 стр.
10. Вишняков Я.Д. Экология и рациональное природопользование: / Я. Д. Вишняков [и др.]; подред. Я. Д. Вишнякова. — Москва: Академия, 2013. — 377 с.: ил. — Высшее образование.
11. Гиляров А.М. Популяционная экология. - М.: изд. МГУ, 1990.
12. Говард А. Д., Ремеон Н. Геология и охрана окружающей среды. Л. «Недра». 1982, 583 с.
13. Дроздов В.В. Общая экология. Учебное пособие. - СПб.: РГТМУ, 2011. - 412 с.
14. Иоганзен Б.Г., Лаптев И.П. Экология, биоценология и охрана природы. - Томск: изд. ТГУ, 1979. - 256 с.
15. Константинов В.М. Экологические основы природопользования / В.М.
16. Константинов, Ю.Б. Челидзе. — М.: Академия, 2001. — 208 с.
17. P.S.Sultonov. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. «MUSIQA» nashriyoti.2007,-240 b.
18. Т.В. Наумова, Т.Л. Кудрявцева. Экология землепользования: учебное пособие для обучающихся по направлению подготовки Землеустройство и кадастры ФГБОУ ВО Приморская ГСХА / ФГБОУ ВО Приморская ГСХА; - Уссурийск, 2015. —104 с.
19. Состояние земельных ресурсов в мире и Российской Федерации[Электронный ресурс] // 2015-2019, Мегалекции. URL:<https://megalektsii.ru/s14631thtml> (дата обращения: 11.11.2019).
20. O'zbekiston respublikasi yer fondiga oid materiallar (2010-2022 yu).